

## O'ZBEK VA INGLIZ MAQOLLARIDA MILLIY MENTALITET IFODASI: QIYOSIY-TIPOLOGIK TAHLIL

**Xaydarova Dilnavo Xabib qizi**

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti tarjimonlik fakulteti talabasi,  
Elektron pochta: [dilikhaydarova07@gmail.com](mailto:dilikhaydarova07@gmail.com)

**Nosirova Mubina Olimovna,**

O'zDJTU Umumiy tilshunoslik kafedrasida katta o'qituvchisi  
[m.nosirova@uzswlu.uz](mailto:m.nosirova@uzswlu.uz)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada o'zbek va ingliz maqollarida milliy mentalitetning ifodalanish xususiyatlari qiyosiy-tipologik yondashuv asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida har ikki xalqning tarixiy-madaniy tajribasi, qadriyatlari, dunyoqarashi va ijtimoiy munosabatlari maqollar orqali qanday aks etishi ochib beriladi. O'zbek maqollarida jamoaviylik, hurmat, sabr-toqat va an'anaviy qadriyatlar ustuvorligi kuzatilsa, ingliz maqollarida individuallik, pragmatizm, vaqtni qadrlash va ratsional yondashuv ustunligi aniqlanadi. Tadqiqot natijalari turli madaniyatlar o'rtasidagi tafakkur va mentalitet tafovutlarini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** maqollar, mentalitet, qiyosiy-tipologik tahlil, lingvokulturologiya, o'zbek tili, ingliz tili, madaniyat, qadriyatlar, semantika, pragmatika.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются особенности выражения национального менталитета в узбекских и английских пословицах на основе сравнительно-типологического анализа. В ходе исследования раскрывается, каким образом историко-культурный опыт, ценности, мировоззрение и социальные отношения двух народов отражаются в пословицах. Установлено, что в узбекских пословицах преобладают коллективизм, уважение, терпение и традиционные ценности, тогда как в английских пословицах доминируют индивидуализм, прагматизм, рациональность и ценность времени. Результаты исследования способствуют более глубокому пониманию различий в мышлении и менталитете различных культур.

**Ключевые слова:** пословицы, менталитет, сравнительно-типологический анализ, лингвокультурология, узбекский язык, английский язык, культура, ценности, семантика, прагматика.

**Abstract.** This article examines the expression of national mentality in Uzbek and English proverbs through a comparative-typological analysis. The study explores how historical and cultural experience, values, worldview, and social relations of both nations are reflected in their proverbs. It is revealed that Uzbek proverbs emphasize collectivism, respect, patience, and traditional values, whereas English proverbs highlight individualism, pragmatism, rationality, and the importance of time. The findings contribute to a deeper understanding of cognitive and cultural distinctions between different linguistic communities.

**Keywords:** proverbs, mentality, comparative-typological analysis, linguoculturology, Uzbek language, English language, culture, values, semantics, pragmatics.

**Kirish.** Til va madaniyat o'zaro chambarchas bog'liq hodisalar bo'lib, ular insoniyat tafakkuri, dunyoqarashi va ijtimoiy hayotining muhim tarkibiy qismini tashkil

etadi. Har bir xalqning milliy mentaliteti, avvalo, uning tilida, ayniqsa, xalq og'zaki ijodining eng qadimiy va barqaror shakllaridan biri bo'lgan maqollarda yaqqol namoyon bo'ladi. Maqollar asrlar davomida shakllanib, xalqning hayotiy tajribasi, urf-odatlarini, qadriyatlarini va ijtimoiy munosabatlarini o'zida mujassam etgan ixcham va mazmunan chuqur til birliklaridir. Shu jihatdan ular nafaqat lingvistik, balki lingvokulturologik va etnopsixologik tadqiqotlar uchun ham muhim manba hisoblanadi. Zamonaviy tilshunoslikda maqollarni o'rganish masalasi ayniqsa qiyosiy-tipologik yondashuv doirasida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Chunki turli tillarga mansub maqollarni o'zaro solishtirish orqali nafaqat ularning umumiy va xususiy jihatlarini aniqlash, balki har bir xalqning o'ziga xos milliy mentalitetini ham chuqurroq anglash imkoniyati yuzaga keladi. Ayniqsa, o'zbek va ingliz xalqlariga xos maqollarni qiyosiy o'rganish orqali Sharq va G'arb tafakkuridagi o'xshashlik va tafovutlarni aniqlash ilmiy jihatdan muhim hisoblanadi. O'zbek xalq maqollari ko'proq jamoaviylik, o'zaro hurmat, sabr-toqat, mehr-oqibat va an'anaviy qadriyatlarga asoslangan ijtimoiy munosabatlarni aks ettiradi. Ularda oilaviy rishtalar, kattaga hurmat, kichikka izzat kabi tushunchalar ustuvor o'rin egallaydi. Ingliz maqollarida esa, aksincha, individuallik, mustaqillik, vaqtni qadrlash, amaliy fikrlash va pragmatik yondashuv ko'proq namoyon bo'ladi. Bu holat ikki xalqning tarixiy taraqqiyoti, ijtimoiy-iqtisodiy sharoiti va madaniy rivojlanish yo'llari bilan uzviy bog'liqdir. Mazkur maqolaning asosiy maqsadi – o'zbek va ingliz maqollarida milliy mentalitetning ifodalanish xususiyatlarini qiyosiy-tipologik tahlil asosida o'rganish, ularning semantik, lingvokulturologik va pragmatik jihatlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, globallashuv jarayonida turli madaniyatlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir kuchayib borayotgan bir paytda, milliy o'zlikni saqlash va anglash masalasi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa, o'z navbatida, til birliklari orqali milliy mentalitetni tadqiq etishni yanada dolzarb qiladi. Mazkur ish natijalari nafaqat nazariy tilshunoslik, balki tarjimashunoslik, madaniyatlararo kommunikatsiya va lingvokulturologiya sohalarini uchun ham muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

**Adabiyotlar tahlili.** Maqollarni lingvistik va lingvokulturologik jihatdan o'rganish masalasi tilshunoslikda nisbatan chuqur ildizlarga ega bo'lib, turli ilmiy maktablar doirasida keng qamrovli tadqiq etilgan. Xususan, paremiologiya – maqollar va matallarni o'rganuvchi yo'nalish sifatida XX asrda mustaqil ilmiy soha sifatida shakllanib, unda maqollarning semantik tuzilishi, funksional xususiyatlari hamda madaniy kontekst bilan aloqadorligi chuqur tahlil qilina boshlandi. Bu borada rus tilshunosligida olib borilgan tadqiqotlar alohida ahamiyat kasb etadi. Jumladan, G.L. Permyakov maqollarni struktur-semantik tizim sifatida tahlil qilib, ularning mantiqiy modeli va universallik xususiyatlarini asoslab bergan. Olim maqollarni xalq tafakkurining kodlangan shakli sifatida talqin etib, ularning umumiy tipologik qonuniyatlarini aniqlashga muvaffaq bo'lgan<sup>12</sup>. Shuningdek, V.N. Teliya tomonidan ishlab chiqilgan lingvokulturologik yondashuv maqollarni milliy madaniyat va mentalitetning aks ettiruvchisi sifatida o'rganishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Teliya frazeologik birliklar, xususan, maqollar orqali xalqning qadriyatlar tizimi, stereotiplari va madaniy kodlari namoyon bo'lishini ilmiy asoslab bergan. Uning fikricha, til birliklari, ayniqsa, barqaror ifodalar milliy ongning eng barqaror va uzoq

<sup>12</sup> Permyakov G.L. Osnovy strukturnoy paremiologii. – Moskva: Nauka, 1988. – 112-bet.

saqlanuvchi elementlari hisoblanadi. Shu sababli maqollarni o'rganish orqali xalq mentalitetining chuqur qatlamlariga kirib borish mumkin (Носирова, 2021).

O'zbek tilshunosligida ham maqollarni o'rganish masalasi e'tibordan chetda qolmagan. Xususan, Sh. Rahmatullayev va A. Hojiyev kabi olimlar tomonidan o'zbek tilidagi frazeologik birliklar va maqollar semantik hamda uslubiy jihatdan tahlil qilingan. Ularning tadqiqotlarida maqollarning milliy xarakteri, xalq og'zaki ijodidagi o'rni va til tizimidagi funksional yuklamasi yoritilgan. Ayniqsa, o'zbek maqollarida aks etgan axloqiy-me'yoriy qarashlar, ijtimoiy qadriyatlar va tarbiyaviy funksiyalar alohida ta'kidlangan. Bu esa o'zbek xalqining mentalitetini anglashda muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi. Ingliz tilshunosligida esa maqollar ko'proq pragmatik va kognitiv yondashuv asosida o'rganilgan. Masalan, Wolfgang Mieder tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda maqollar xalq donishmandligining universal shakli sifatida talqin qilinib, ularning kommunikativ vazifasi, ijtimoiy kontekstdagi qo'llanishi va madaniy xususiyatlari keng yoritilgan. Mieder maqollarni "xalqning qisqa, ammo chuqur mazmunli falsafasi" sifatida baholab, ularning zamonaviy nutqdagi o'rni va transformatsiyasini ham tahlil qilgan<sup>13</sup>. Qiyosiy-tipologik tadqiqotlar doirasida esa o'zbek va ingliz maqollarini solishtirish orqali ikki xil madaniyat va tafakkur tizimi o'rtasidagi o'xshashlik va tafovutlarni aniqlashga qaratilgan izlanishlar ham mavjud. Ko'pchilik tadqiqotlar alohida til doirasida yoki umumiy tavsif darajasida olib borilgan bo'lib, ikki tilni lingvokulturologik asosda solishtirish yetarli darajada yoritilmagan. Mazkur tadqiqot aynan shu bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan bo'lib, u maqollar orqali milliy mentalitetni yanada aniqroq va ilmiy asosda ochib berishga xizmat qiladi.

**Metodologiya.** Mazkur tadqiqotda o'zbek va ingliz maqollarida milliy mentalitetning ifodalanish xususiyatlarini aniqlash uchun kompleks, ko'p bosqichli metodologik yondashuv qo'llanildi. Tadqiqotning nazariy-metodologik asosini lingvokulturologik, qiyosiy-tipologik va kognitiv-semantik yondashuvlar tashkil etadi. Ushbu yondashuvlar maqollarni nafaqat til birliklari sifatida, balki muayyan madaniyatning konseptual tizimini ifodalovchi fenomen sifatida tahlil qilish imkonini beradi. Lingvokulturologik yondashuv asosida maqollar xalqning tarixiy tajribasi, qadriyatlari va mental stereotiplarini aks ettiruvchi madaniy kod sifatida ko'rib chiqildi. Bu jarayonda maqollarda mujassam bo'lgan konseptlar (masalan, "mehnat", "vaqt", "sabr", "boylik", "aqllilik") aniqlanib, ularning har ikki tildagi ifodalanish shakllari solishtirildi. O'zbek maqollari asosan akademik to'plamlar va ishonchli paremiologik manbalardan, ingliz maqollari esa xalqaro maqollar lug'atlari va ilmiy nashrlardan tanlab olindi. Bu jarayonda G.L. Permyakov tomonidan ishlab chiqilgan struktur-semantik tahlil prinsiplari metodologik asos sifatida qo'llanildi, ya'ni maqollar umumiy mantiqiy modellar asosida tasniflanib, ularning universallik va milliy xususiyatlari aniqlab borildi<sup>14</sup>. Bundan tashqari, tadqiqotda kognitiv-semantik metod ham muhim o'rin egalladi. Ushbu metod orqali maqollarda ifodalangan konseptlar inson tafakkuri va tajribasi bilan bog'liq holda tahlil qilindi. Har ikki til maqollarida bir xil konseptning qanday turli semantik maydonlarda namoyon bo'lishi aniqlanib, bu orqali milliy tafakkurdagi farqlar asoslab berildi (Носирова, 2022). Masalan, "vaqt" konsepti ingliz maqollarida iqtisodiy va pragmatik qiymat sifatida talqin qilinsa, o'zbek maqollarida u

<sup>13</sup> Mieder W. Proverbs: A Handbook. – Westport: Greenwood Press, 2004. – 7-bet.

<sup>14</sup> Permyakov G.L. Osnovy strukturnoy paremiologii. – Moskva: Nauka, 1988. – 135-bet.

ko'proq hayotiy tajriba va sabr bilan bog'liq holda ifodalanishi aniqlanadi. Bu kabi farqlar lingvokulturologik interpretatsiya asosida izohlandi.

**Natija va xulosa.** Mazkur tadqiqot natijalari o'zbek va ingliz maqollarida milliy mentalitetning ifodalanish xususiyatlari til va madaniyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni yaqqol namoyon etishini ko'rsatdi. Qiyosiy-tipologik tahlil asosida aniqlanishicha, har ikki tilga mansub maqollar umumiy insoniy tajribaga tayangan holda shakllangan bo'lsa-da, ularning semantik yo'nalishi va baholovchi komponentlari milliy qadriyatlar tizimiga mos ravishda farqlanadi (Носирова, 2023). Xususan, o'zbek maqollarida ijtimoiy uyg'unlik, jamoaviylik, kattaga hurmat, sabr-toqat va an'anaviy axloqiy me'yorlar ustuvor konseptlar sifatida namoyon bo'ldi. Bu holat o'zbek jamiyatining tarixiy shakllanish jarayonida kollektiv ong va ijtimoiy birdamlik muhim o'rin tutganini tasdiqlaydi. Ingliz maqollarida esa individual tashabbus, mustaqillik, vaqtni samarali boshqarish, amaliy fikrlash va shaxsiy mas'uliyat kabi konseptlar yetakchi o'rinni egallashi aniqlandi, bu esa G'arb madaniyatiga xos pragmatik va ratsional tafakkur modelini aks ettiradi.

Shuningdek, maqollarning pragmatik funksiyasi ham milliy mentalitet bilan bevosita bog'liq ekani aniqlandi. O'zbek maqollarida tarbiyaviylik va ijtimoiy nazorat funksiyasi kuchli bo'lib, ular orqali jamiyatda qabul qilingan axloqiy normalar mustahkamlanadi. Ingliz maqollarida esa maslahat berish, ogohlantirish va individual qaror qabul qilishga undash kabi funksiyalar ustunlik qiladi. Bu esa maqollarning nutqdagi qo'llanishi va kommunikativ vazifasi ham madaniy muhitga bog'liq holda shakllanishini ko'rsatadi.

Yuqoridagi tahlillar asosida shuni xulosa qilish mumkinki, o'zbek va ingliz maqollari nafaqat til birliklari, balki har bir xalqning milliy mentalitetini aks ettiruvchi murakkab lingvokulturologik fenomen hisoblanadi. Ularning qiyosiy o'rganilishi turli madaniyatlar o'rtasidagi tafakkur farqlarini aniqlash, madaniyatlararo kommunikatsiyani chuqurroq anglash va tarjima jarayonida ma'no yo'qotilishining oldini olishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, maqollar orqali milliy mentalitetni o'rganish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham dolzarb bo'lib, kelgusida yanada kengroq korpus asosida olib boriladigan tadqiqotlar uchun mustahkam metodologik asos yaratadi.

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг фразеологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. – 384 б.
2. Ҳожиёв А. Ўзбек тили лексикологияси. – Тошкент, 1996. – 256 б.
3. Носирова М. О. Пословицная языковая картина мира как объект аксиологических исследований в языкознании //Янги Ўзбекистон: инновация, фан ва таълим. – 2022. – С. 35.
4. Нурмонов А., Шукуров Ш. Лингвокультуроология. – Тошкент, 2010.
5. Махмудов Н. Тил ва маданият. – Тошкент: Фан, 2013. – 180 б.
6. Носирова М. О. Пословицная картина мира как фрагмент языковой картины мира //Involta Scientific Journal. – 2023. – Т. 2. – №. 5. – С. 168-174.
7. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Тошкент: Фан, 2006. – 276 б.
8. Permyakov G.L. Osnovy strukturnoy paremiologii. – Moskva, 1988. – 240b.
9. Носирова М. О. Аксиологический потенциал социального уровня ценностей //Русский язык за рубежом: инновационные подходы и эффективные практики открытого образования. – 2021. – С. 104-110.

10. Teliya V.N. Russkaya frazeologiya: semanticheskiy, pragmaticheskiy i lingvokulturologicheskiy aspekty. – Moskva, 1996. – 288 b.
11. Mieder W. Proverbs: A Handbook. – Westport, 2004. – 305 p.